

**DAVLAT BOSHQARUV TIZIMINI SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH XORIJIY TAJRIBA MILLIY AMALIYOT ASOSIDA  
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Norqobilova Feruza Abduhamidovna*

*Qarshi muhandislik iqtisodiyot- instituti,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*[fnorqobilova85@gmail.com](mailto:fnorqobilova85@gmail.com)*

*+998912149111*

*Haydarov Javlon Avlayor o'g'li*

*Mustaqil izlanuvchi*

*[negga\\_22@inbox.ru](mailto:negga_22@inbox.ru)*

*+998909670405*

**Annotatsiya:** Jahon hamjamiyatida rivojlanayotgan davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasi yetakchi o'rinda ildam qadamlar bilan bosqichma-bosqich o'zini taraqqiyot yo'lidan ketmoqda. Hozirgi davrda, bir muncha rivojlangan va yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra har bir millat jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaydi, katta va uzoq muddatli maqsadlarni qo'yishga va ularga erishishga qodir. Ushbu maqola xalqimizning farovon hayoti, go'zal hayot tarzi va umuman olganda, har bitta sohada yuksak yutuqlarga erishish maqsadida davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish, unda horijiy tajribani o'rganish, milliy amaliyotda qo'llash haqida kerakli va foydali ma'lumotlarni ifoda etadi.

**Kalit so'zlar:** davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi, hamkorlik, xalqaro tajriba, modernizatsiya, demokratlashtirish, davlat boshqaruvi.

Davlat harakat strategiyasining harakatlantiruvchi kuchi davlat va uning organlari hisoblanadi. Islohotlarning kafolati va kafolati - bu davlatning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lgan voqea. U boshqaruv mahorati bilan uzoq muddatli maqsadlarni rejalashtiradi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni boshqaradi, aholini safarbar qiladi va mavjud resurslardan oqilona va adolatli foydalanadi. Binobarin, davlat va jamoat boshqaruvi tizimini takomillashtirmasdan mamlakat hayotini modernizatsiya qilish mumkin emas. Modernizatsiya mamlakatni rivojlanishiga olib keladi, menejmentning xizmat qilish muddatini yangi sifat va talablar darajasiga ko'taradi. Ushbu jarayonlar bevosita mintaqaviy rivojlanish bilan bog'liq muammolarni hal qilishda mahalliy hokimiyat organlariga mustaqil qaror qabul qilishga imkon beradigan qonunchilik bazasini shakllantirishni talab qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, hukumatni modernizatsiya qilish mamlakatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, xalqaro tajriba

uning samaradorligini oshirishga yordam beradi. 5-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari Aziz Abduhakimov, adliya vaziri Ruslanbek Davletov, investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o‘rinbosari Shuhrat Vafoev va Turizmni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalar bo'yicha davlat qo‘mitasi direktori Sh. Al-Gergavi uchrashuv davomida sog‘liqni saqlash, ta’lim, iqtisodiyot va boshqa sohalarda amaliy natijalarga erishish uchun jamoaviy ish olib borish muhimligini ta’kidlashdi. O‘zbekiston delegatsiyasining BAAGA tashrifi hukumat boshqaruvni takomillashtirishda ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga sodiqligini namoyish etadi. Birlashgan Arab Amirliklari vazirining so‘zlariga ko‘ra, hukumat faoliyatini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta’minlash BAAning kelajakni xavfsiz ta’minlash yo‘lidagi harakatlarining muhim qismidir. Birlashgan Arab Amirliklari yangi biznes modellarini ishlab chiqish va joriy etish bo‘yicha muvaffaqiyatli tajribasidan mamnunligini bildirdi. Hozirgi globallashuv davrida, davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirish uchun davlat xizmatlari ko‘rsatish tizimi katta ahamiyatga ega. Asosan davlat xizmatlari ko‘rsatish masalasi yetakchi masalalardan biri bo‘lib, bu tizimning maqsadi aholi manfaatlariga xizmat qilishdir[1].

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotimizning barcha sohalaridagi globallashuv jarayonlari ta’sirida tarmoqlanib borayotgan global raqobat muhitining o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashish talabi zamon bilan hamohang ravishda rivojlanish, takomillashish, o‘z-o‘zini modernizatsiyalash mexanizmlaridan unumli foydalanishni taqazo etmoqda.

Davlat hokimiyati organi, nodavlat tijorat organi yoki nodavlat notijorat tashkiloti bo‘lishidan, ya’ni huquqiy maqomidan qat’iy nazar, o‘zining boshqaruv va xo‘jalik yuritish usullarini ana’anaviy, ya’ni chiziqli-divizion shakldan zamonaviy - funksional shaklga, ya’ni har bir iste’molchi uchun individual ravishda, ularning son va sifat ko‘rsatgichlari bo‘yicha talablariga javob beruvchi yakuniy faoliyat mahsuli bilan ta’minlab berishga qodir bo‘lgan usullar bilan alishtirish masalasining ahamiyati ortib bormoqda[2].

Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi, jahon bozorida raqobatning keskinlashuvi sharoitida har bir mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda kadrlarning salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi, – deya fikrini boshlaydi Alisher Eshtayev. Bu yo‘lda, avvalo, ta’lim muassasalarining reytingi va raqobatbardoshligini oshirish, o‘qitish tizimida iqtisodiyotning zamonaviy talab va ehtiyojlariga muvofiq kadrlar tayyorlash muhim omildir.

Prezidentimizning 2024 yil 7 fevraldagi “Iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari sifatida jahondagi so‘nggi tendensiyalar, xorijiy tajriba va real iqtisodiyot talablar asosida oliy ma’lumotli kadrlarni tayyorlash nazarda tutilgan.

Buning uchun talabalarda tizimli tahlil qilish, kreativ fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, zamonaviy o'quv-ilmiy laboratoriyalar va simulyatsion markazlarni tashkil etish, bu orqali "ta'lim-fan-innovatsiya-raqamlashtirish" ekotizimini rivojlantirishda ilmiy-innovatsion tadqiqotlar transferini yo'lga qo'yish ayni samarali usullardandir.

Ilmiy loyihalar natijasini joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish, professor-o'qituvchilarning xorijiy ilmiy-amaliy stajirovkasini yo'lga qo'yishga alohida urg'u berildi. Mustaqil mushohada qiladigan, kreativ yondashuv va keng qamrovli ma'lumotlarni qayta ishlash asosida kadrlar tayyorlash maqsadida bakalavriat va magistratura bosqichiga o'qishga qabul qilingan iqtidorli talabalar uchun alohida xorijiy tillarda o'qitiladigan guruhlar tashkil etilishi qarorning o'ziga xos tomonlaridan biri bo'ldi.

Kadrlar tayyorlashni jahon standartlariga moslashtirish, yangi ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o'quv rejasi va dasturlarini xorijiy oliy ta'lim muassasalarining tajribasi asosida yaratish ayni muddao bo'lib, ta'lim dasturlarining xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro'yxatga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining dasturi asosida bosqichma-bosqich ishlab chiqish ko'zda tutilgan[3].

O'zbekistonda MDHning boshqa mamlakatlariga nisbatan yuridik xizmat faoliyatini tashkil etish bo'yicha qonunchilik jarayoni bir muncha aniq rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Xususan, iqtisodiyot, davlat va xo'jalik boshqaruvi tizimidagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda, bir qator huquqiy tuzdagi xujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 02.03.1993-yildagi 118-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv organlari va korxonalaridagi yuridik xizmat to'g'risidagi Nizom, Vazirlar Mahkamasining 24.08.2007 yildagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari faoliyatini huquqiy ta'minlash darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 182-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 22 noyabrdagi "Yuridik xizmat xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va malakasini oshirish haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 244-sonli qarori[4].

Raqobatchilarning raqobatbardoshligiga erishish uchun marketing orqali barcha korxonalar va firmalarning mamlakatimizda ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishdagi zamonaviy talab va ehtiyojlarini to'liq anglash va o'z o'rnini topish imkoniyati ortadi. Kompaniyalar va firmalar har bir iste'molchilarning xohish - istaklarini hisobga olgan holda tovarlar va xizmatlarni taqdim etadilar, chunki ular marketing faoliyatidan foydalanganligi uchun[5].

Mamlakatimizda so'nggi yillarda aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi

izchil va tizimli isloh qilinmoqda hamda takomillashtirilmoqda. Har bir tumanda (shaharda) Davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi va 2019-yil davomida ular tomonidan 13 mln.ga yaqin xizmatlar ko'rsatildi.

Bugungi kunda ayrim hududlarda ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari soni 130 taga yetdi, mijozlar soni esa kuniga 300 dan 1,5 minggacha odamni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat etuvchi aholi va tadbirkorlik subyektlarining soni doimiy ravishda o'sib borishi mazkur sohani takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rilishini talab etmoqda[6].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aziz Botirovich Mardonov Toshkent davlat yuridik universiteti Davlat boshqaruvi huquqi bo'limi magistranti.
2. O'ZMU IJTIMOIIY FANLAR FAKULTETI SOTSIOLOGIYA 4-BOSQICH TALABASI KAXAROVA NILUFAR DAVLAT BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA KO'MPLEKS DASTURLAR.
3. [https://uza.uz/oz/posts/xorijiy-tajriba-va-real-iqtisodiyot-talablari-asosida-kadrlar-tayyorlash-zamon-talabi\\_569707](https://uza.uz/oz/posts/xorijiy-tajriba-va-real-iqtisodiyot-talablari-asosida-kadrlar-tayyorlash-zamon-talabi_569707)
4. <https://namangan.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=59637>
5. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Bank ishi va audit yo'nalishi talabasi Tangriyev Abdurahmon "RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHNING MARKETING STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH".
6. <https://lex.uz/docs/-4720389>